



**AYOLLAR NUTQIDA PSIXOLOGIK HOLATLARNING
IFODALANISHI (“XAMSA” QAHRAMONLARI MISOLIDA)**

Polvonova Bashoratxon Mirobjonovna

*Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b., dotsent
Farg'ona texnika universiteti 2-sonli akademik litsey o'qituvchisi
polvonovabashoratxon@gmail.com*

Annotatsiya: Maqolada tarixiy dostonlaridagi ayol obrazlari orqali berilgan poetik nutqning psixolingvistik tahlili o'rganilib, unda ayollar nutqining o'ziga xosligi, ruhiy holatning nutq orqali ifodalanishi va psixolingvistik xususiyatlari haqida gap boradi. Shuningdek, gender lingvistikasining sotsiopsixolingvistik tadqiqi she'riy matnning o'ziga xos jizibasi bilan yanada mukammal holga kelgani buyuk adib Alisher Navoiy asari parchalari orqali isbotlanadi. Qiz-juvonlarning ijtimoiy, ruhiy va shaxsiy kechinmalari nutqda qanday vositalar bilan ifodalanishi ilmiy tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: genderologiya, psixolingvistika, ayol nutqi, sotsiolingvistik tadqiq, obyekt, predmet, freym, individ, kommunikatsiya, nutq subyekti, nutq obyekt, motiv.

Аннотация: В статье исследуется психолингвистический анализ поэтической речи, представленной через женские образы в исторических эпосах, в котором рассматриваются своеобразие женской речи, выражение психических состояний посредством речи и психолингвистические особенности. Также доказывается, что социопсихолингвистическое изучение гендерной лингвистики стало более совершенным благодаря неповторимому очарованию поэтического текста на примере фрагментов произведений великого писателя Алишера Навои. Научно анализируются средства выражения социальных, психологических и личностных переживаний женщин в речи.

Ключевые слова: гендерология, психолингвистика, женская речь, социолингвистическое исследование, объект, субъект, фрейм, личность, коммуникация, субъект речи, объект речи, мотив.

Abstract: The article examines the psycholinguistic analysis of poetic speech presented through female images in historical epics, which examines the uniqueness of female speech, the expression of mental states through speech and psycholinguistic features. It also demonstrates that the sociopsycholinguistic study of gender linguistics has been enhanced by the unique charm of poetic text, using excerpts from the works of the great writer Alisher Navoi as examples. The means of expressing women's social, psychological, and personal experiences in speech are scientifically analyzed.

Keywords: genderology, psycholinguistics, women's speech, sociolinguistic research, object, subject, frame, personality, communication, subject of speech, object of speech, motive.





I Kirish

Kun sayin rivojlanib borayotgan antroposentrik tilshunoslik zaminada bir qator zamonaviy tilshunoslik sohalari paydo bo‘lmoqda va shakllanib bormoqda. Xususan, psixolingvistika juda ko‘p tadqiqotchilarning e‘tiborini tortib, omma uchun ham g‘oyat qiziqarli va muhim yangiliklarni kashf etish jarayonini o‘tkazdi. Ayniqsa, hali to‘liq tahlil etilmagan tarixiy, mumtoz asarlar tilining yangi qarashlar, psixolingvistik xususiyatlarini o‘rganish bugungi kunning muhim vazifalaridan hisoblanadi. Bu borada Alisher Navoiy asarlariga murojaat etish eng maqbul yo‘l deb o‘ylaymiz. Chunki buyuk adib asarlarida obrazlarning ruhiy holati nutqda juda ishonarli va jonli, shuningdek, mufassal tasvirlanadi. Ayniqsa, ayol obrazlarning psixologik va sotsiolik jihatlari muayyan chizgilar bilan aks ettiriladi.

II Asosiy qism


Ushbu mavzu bo‘yicha ilmiy izlanishlar davomida tarixiy dostonlardagi ayol obrazlari nutqi sotsiopsixolingvistik jihatdan tahlil qilindi. Dialog va monologlarda ayol ovozi lingvopragmatik xususiyatlari aniqlandi va gender faqlar ham ochildi. Masalan, birinchi navbatda, “Xamsa” dostonlaridagi ayol obrazlari soni, nutq hajmi, shuningdek, ruhiy holat belgilarining ifodasi tahlil etildi.

Ayol obrazlari – dostonlar bo‘yicha taqsimoti



Shuningdek, ruhiy holat tahlili ham jadval orqali kompyuter texnologiyalari yordamida yaratildi.

Ayol psixotiplari – nutq orqali tahlil





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Ayollar nutqida emotsional-ekspressiv vositalar (epitet, metafora, kinoya va b.) mavjud bo'lib, ular ayni shu jihati bilan ham erkak personajlardan keskin farq qiladi. Undov so'zlar, o'ziga xos bo'lgan modal so'zlar, so'roq va belgilash olmoshlarining turlichami ham ayol nutqining lingvistik tahlilida ajralib turadi.

Ayol obrazlarining jamiyatdagi ijtimoiy rolga qarab nutq farqlanishi ham tahlilga tortilgan poetik matnlarda yaqqol ifodalangan. Ayollar nutqining ijtimoiy rolga qarab farqlanishi (malika, qiz, ona, mahbuba) ayol nutqida ijtimoiy maqomning ifodalanish vositalaridir.

Nutqdagi psixotiplashtirish usullari, Shirin, Layli, Malika obrazlarining nutqi asosida psixologik portretlar ishlab chiqiladi. Ularning ichki nutq namunalari tahlil qilinadi. Ayollarning nutqidagi kommunikativ strategiyalar va niyatlar, psixolingvistik portret yaratishda sintaktik va pragmatik tahlil, ayollar nutqining lingvistik-pragmatik tuzilmasi orqali psixotiplashtirish kabi vazifalar bajarildi.

Avvalgi tadqiqotlarda badiiy-estetik yondashuv ustuvor bo'lgan bo'lsa, bu ishda sotsiolingvistika, psixolingvistika va gender lingvistikasining uyg'unlashuvi asosida ilmiy izlanish olib borildi. Har bir ayol qahramonning nutqi orqali ularning psixotipi, hissiy holati va ong oqimi modelldashtirildi.

Ayollar nutqining kommunikativ strategiyalari aniqlanib, ularning funksional-sotsial rolga qarab tipologiyasi yaratildi.

Ayol obrazlari (ona, malika, mahbuba, qullikdagi ayol) nutqida ifodalangan iltimos, rad etish, e'tiroz, yalborish kabi aktyal nutq aktlari tahlil qilinib, sotsiopsixologik kontekstda tavsiflandi. Masalan, malika Shirinning sevgilisi Farhodga yozgan maktubi yozma nutqqa xos bo'lib, qiz bu nutq turida og'zaki so'zlashuv nutqidan ko'ra yaxshiroq, bemalol va xotirjam gapiradi, shuningdek, yumshoq va serxavotir nutqni ifoda etadi.

Nedur ahvoling , ey zor-u g'aribim?

Visolim davlatidin benasibim.

Chekardin g'am tog'in holing nechukdur?

Bu yukdin jismi chun noling nechukdur?

Yoki xolasi Mehinbonuning Xisrav sovchilaridan xabar bergandagi fikrlari ham o'ziga xos ifodalangan bo'lib, uyat, andisha, o'z ahvolini yashirish bilan birga, oshig'iga achinish belgilari ham yaqqol ko'rinib turadi.

Boshimg'a tig'i g'am sursang ne bo'lg'ay,

Bu so'z deguncha o'ltursang ne bo'lg'ay!?

Meni hindudek otashgahga boshla,

Uzorim xolidek o't ichra tashla

Ki, jismim bo'lsa ul o't ichra nobud,

Sochimdek chiq qayondin chirmanib dud

Manga Farhod ishq tuihmati bas

Ki, chehram ko'rmayin ul zor-u bekas.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

Yiqilmoqdur shiori oh tortib,
Ko'nguldin nolayi jonkoh tortib,

III Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ayol nutqi xoh tarixiy va xoh zamonaviy talqinda bo'lsa ham, o'zining muloyimligi, biroz shikoyatchiligi va uyatchanligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, Navoiy asarlari ayol obrazlari nutqining psixolingvistik tahlili zamonaviy ayol nutqi bilan solishtirilganda bu yaqqol namoyon bo'ladi. Ushbu tadqiqotda sotsiolingvistik, psixolingvistik va lingvistik-stilistik tahlillarni birlashtirgan ko'p o'lchovli yondashuv qo'llanilgan. Psixolingvistik profillash ichki dialoglar, hissiy tonallik va nutq strategiyalarini tushunish uchun o'tkazildi. Navoiyning ayol obrazlarini hozirgi ayol nutqi bilan yonma-yon joylashtirishda qiyosiy tilshunoslikdan foydalanilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida. PF-5847-son. 2019-yil 8-oktyabr. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 18.03.2022 y., 06/22/89/0227- son.
2. Navoiy A. Devoni Foni. – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981.
3. Navoiy A. Xamsa. 5 jildlik. – T.: Fan, 1989–1996.
4. Navoiy A. Majolis un-nafois. – T.: Fan, 1997.
5. Navoiy A. Muhokamat ul-lug'atayn. – T.: Fan, 2000.
6. Bertels E.E. Navoiy va uning davri. – T.: Fan, 1968.
7. Юлдашев Б. Сўз ва маъно. – Т.: Университет, 2003.
8. Сайфуллаев Г. Ўзбек тилининг сўз яратиш имкониятлари. – Т.: Фан, 1986.
9. Lakoff R. Language and Woman's Place. – New York: Harper, 1975.
10. G'aniyeva N. Alisher Navoiy asarlarining badiiyati. – T.: Fan, 1974.
11. Karimov N. Navoiy va Sharq mumtoz adabiyoti. – T.: Fan, 1993.
12. Is'hoqov M. Badiiy asarda obraz va til. – T.: Fan, 1998.
13. Holiqova M. Badiiy matnda til va tafakkur. – T.: O'zMU, 2012.

